



UDK:80.82

*Nilufar NORPO‘LOTOVA,*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktranti*  
*E-mail:mirjahon776@gmail.com*

*SamDCHTI professori, f.f.d. A.Turabov taqrizi asosida*

### SAMARQAND TOPONIMLARINING ELEKTRON KORPUSDAGI KO‘RINISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Samarqand viloyati toponimlarining elektron korpusdagi ko‘rinishi, joy nomlarining qo‘llanish chastotasi, semantik, leksik tahlili hamda mazkur toponimlarning geografik jihatdan joylashuvi, E.M. Murzayev, V.A. Juchkevich, A.V. Superanskaya, V.A. Nikonov va boshqa bir qator chet ellik olimlarning ilmiy izlanishlari, tajribalari asosida o‘rganilganligi, ularning o‘rganilishi uzoq yillik mehnat va tajribalarning mahsuli bo‘lib, mana shular natijasida joy nomlariga turli xil yondashuvlar va nazariyalar paydo bo‘lishiga olib kelganligi, toponimlarni tasniflash dolzarb masalalardan biri ekanligi, ularning elektron korpusi foydalanuvchilarga qulayliklar olib kelishi haqida atroflicha fikr yuritilgan. Jumladan, Samarqand toponimlarining elektron korpusdagi ko‘rinishlari ularning leksik-semantik, fonetik, morfologik, etimologik, sintaktik tomonlarini tez va oson aniqlash imkonini berishi haqida aytilgan.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand, toponim, elektron korpus, joy nomlarining qo‘llanish chastotasi, “Samarqand”, korpusli matnlar, ma’lumotlar bazalari, avtomatik tahrirlash, teglanish.

### ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ТОПОНИМОВ САМАРКАНДА В ЭЛЕКТРОННОМ КОРПУСЕ

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается появление топонимов Самаркандской области в электронном корпусе, частотность использования топонимов, семантический, лексический анализ и географическое положение этих топонимов, основанное на научных исследованиях и опыте Э.М. Мурзаева, В.А. Жучкевича, А.В. Суперанской, В.А. Никонова и ряда других зарубежных учёных. Их изучение является продуктом многолетнего труда и опыта, что привело к появлению различных подходов и теорий к топонимике. Классификация топонимов является одной из актуальных проблем, а их электронный корпус приносит удобство пользователям. В частности, говорится, что появление топонимов Самарканда в электронном корпусе позволяет быстро и легко определить их лексико-семантический, фонетический, морфологический, этимологический, синтаксический аспекты.

**Ключевые слова:** Самарканд, топоним, электронный корпус, частотность употребления топонимов, «Самара», корпусные тексты, базы данных, автоматическое редактирование, тегирование.

### THE REPRESENTATION OF SAMARQAND TOPONYMS IN THE ELECTRONIC CORPUS

Annotation

This article discusses in detail the appearance of toponyms of the Samarkand region in the electronic corpus, the frequency of use of place names, semantic, lexical analysis, and the geographical location of these toponyms, based on the scientific research and experience of E.M. Murzayev, V.A. Zhuchkevich, A.V. Superanskaya, V.A. Nikonov and a number of other foreign scientists, their study is the product of many years of work and experience, which led to the emergence of various approaches and theories to place names, the classification of toponyms is one of the current issues, and their electronic corpus brings convenience to users. In particular, it is said that the appearance of Samarkand toponyms in the electronic corpus allows you to quickly and easily determine their lexical-semantic, phonetic, morphological, etymological, syntactic aspects.

**Key words:** Samarkand, toponym, electronic corpus, frequency of use of place names, "Samara", corpus texts, databases, automatic editing, tagging.

**Kirish.** Joy nomlari - ma’lum bir hududning tarixiy jarayonlari, etnik tuzilishi, madaniyati, til xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi eng muhim til birliklaridan biri hisoblanadi. Hozirgi davrda raqamlashtirish jarayoni keng avj olayotganligi barchamizga ma’lum. Shu sababli ham til materiallarini elektron shaklda to‘plash, tahlil qilish imkoni kun sayin ortib bormoqda. Shu sababli elektron korpusga joy nomlarini kiritish va ularning qo‘llanish darajasini ko‘proq organish imkoniyatini yaratadi. Samarqand sharqning gavhari va o‘zining betakror boy merosi bilan kishilik jamiyatini haligacha hayratda qoldirib kelmoqda. Ushbu maskanda turkiy qabilalarga taalluqli bo‘lgan asrluk merosni o‘rganish mumkin. Shuning uchun ham undagi joy nomlarining elektron korpusdagi ko‘rinish hosil qilinishini katta ilmiy yangilikning vujudga kelishi deb qarashimiz ham mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Joy nomlari va ularning til xususiyatlarini o‘rganish yurtimiz tilshunosligida alohida shakllangan bo‘lib, ushbu mavzu doirasida juda katta tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Toponimikaning nazariy masalalari H. Hasanov, Q. Sodiqov va boshqa olimlarning asarlarida o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Korpus lingvistikasi bo‘yicha esa Sh. Rahimov, N. Madrahimov va boshqalarning ishlari korpus va kompyuter lingvistikasi bo‘yicha ko‘plab masalalarni oz bo‘lsa-da o‘rganishda yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi vaqtda yangi tilshunoslik yo‘nalishlari vujudga kelmoqda. Jamiyatimizda esa raqamlashtirish, tizimlashtirish va kompyuterlashtirishga bo‘lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Natijada esa tilning turli qatlamlariga taalluqli bo‘lgan manbalar elektron korpus shakliga o‘tmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Elektron korpus materiallari asosida Samarqand shahriga oid joy nomlari va ularning tahlili, qo'llanish darajasi, variantlari va til xususiyatlari jihatidan farq qilinishini ko'rsatadi.

Samarqand shahrining elektron korpusdagi ko'rinishining turli xilliligi ularning tarixiy qatlamlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Samarqand hududiga daxldor joy nomlarini elektron korpusga kiritish natijasida ularning turli xilligi sabab yagona me'yor asosida standartlashtirish shartligini ko'rsatadi. Qisqartirib aytganda, elektron korpus Samarqand toponimlarini tizimli o'rganish uchun muhim manba ekanligini tasdiqlaydi.

Taklif sifatida esa joy nomlarini standartlashtirish va ularni amaliy jihatdan axborot tizimlarida qo'llash lozim.

Elektron korpuslar bugungi davr tilshunosligida til birliklarini tizimli o'rganishda eng muhim va taraqqiyotgan manbalardan biri hisoblanadi. Ular orqali matnlarni turli xil jihatdan tahlil qilish mumkin. Masalan, joy nomlarining qo'llanish chastotasi, semantik, leksik tahlili hamda mazkur toponimlarning geografik jihatdan joylashuvi tadqiq qilinadi. Bularning barchasini elektron korpus vositasida amalga oshirish mumkin. Samarqand viloyati o'zining tarixiylik, boy merosi, iqlimi, geografik jihatdan joylashuvi hamda madaniyati bilan ajralib turadi.

Shu o'rnida Samarqand toponimi haqida qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Samarqand [1] nafaqat O'rta Osiyo mintaqasida, balki dunyoda mashhur, o'z o'rniga ega shaharlardan biri ekanligini barchamiz bilamiz. Shu sababli ham ushbu joy nomining nafaqat tarkibiy qismlari, balki uning barcha jabhalarini kitobxoniga yetkazish zarur. Samarqand salkam uch ming yillik tarixga ega shaharlardan biri hisoblanadi. Ushbu joy nomi dastlab Afrosiyob, keyinchalik esa Marokanda deb atalishi barchamizga ma'lum. Shu o'rnida yana bir muhim adabiy ma'lumotni keltirish ham mumkin. Samarqandda qadimdan she'riyat [2] hamda musiqa sohasida shuhrat qozongan shaxslar juda ham ko'p bo'lgan. Bundan

Katalog

Katalog	Toponimlar	Lingvistik ma'lumot to'plami
1.	Urgut	Nomi (turli xil tillarda) Qanday ma'no anglatishi Kelib chiqish tarixi Morfologik, leksikografik, fonetik, morfemik jihatdan tahlili

Ushbu jadvalga yana joy nomlarining Samarqand shevasida [5] turli joylarda qanday atalishini qo'shish mumkin. Samarqand shahri qarluq lahjasining boshqa viloyatlardagidan tubdan farq qilib, shevadagi lug'aviy birliklar o'n to'rtta mikroguruhlarga bo'linganligi isbotlangan ekan. Bu ham, albatta, toponimlarning turli xil atalishida elektron korpusga qo'shilsa foydali ma'lumot qatoriga kiradi. Aynan mana shu shahar shevasi asosida tuzilgan dialektologik lug'at hudud shevasining boshqa o'zbek shevalari bilan munosabatini tahlil etishda, qiyoslashda muhim ahamiyat kasb etgan va ushbu jarayon, o'z navbatida, tilning turli xil taraqqiyot davrlarini o'rganishda ham muhim manba sifatida qaralgan. Shu sababdan ham uning naqafat lingvistik, etimologik, tarixiy tomondan, balki sheva yuzasidan tahlil etilishi tarixiylikni o'rganishda muhim bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Ushbu toponimlarning elektron korpus holatida ko'rinishi esa uning foylanuvchiga ancha yengilliklarni keltirib chiqarishidan tashqari boshqa chet ellik o'quvchilarga ham qulay. Ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatib turibdiki, Samarqand nafaqat ro'yi zamin sayqali, balki buyuk daholarning yurti hamdir. Shu sababli Amir Temur va boshqa

tashqari, Samarqand [3] jahon madaniyati, fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan madaniy markazlardan bo'lib, o'zining uch ming yillik tarixi jarayonida boshidan kechirgan, juda mashaqqatli davrlardan omon qolgan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ulkan merosni kelajak avlodlarga yetkazib beruvchi, buyuk daholarning qadami yetgan buyuk va takrorlanmas shahardir. Samarqand viloyati [4] toponimlari E.M. Murzayev, V.A. Juchkevich, A.V. Superanskaya, V.A. Nikonov va boshqa bir qator chet ellik olimlarning ilmiy izlanishlari, tajribalari asosida o'rganilgan. Olimlar tomondan toponimlarning o'rganilishi uzoq yillik mehnat va tajribalarning mahsuli bo'lib, mana shular natijasida joy nomlariga turli xil yondashuvlar va nazariylar paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi kunda toponimlarni tasniflash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ammo bu biroz mushkul vazifa, chunki toponimlarni bir necha tomondan o'rganish talab etiladi. Joy nomlarini lingvistik jihatdan o'rganish qay darajada muhim bo'lsa, ularni geografik tomondan ham tavsif etish zarur. Toponimikaniyning ko'p qirraliligi ham shundan iboratki, birinchidan, uning geografik jihati muhim bo'lsa, ikkinchi murakkab jarayon lingvistikasidir. Samarqand viloyatining joy nomlarini tasniflashda ham tabiiy geografik xususiyatlari tomondan qaraladi. Bu viloyat joy nomlarini atashda ham turli xil tabiat hodisalarining ro'y berishi va yil davomida mazkur zaminda qanday iqlim bo'lishiga qarab o'sha yerning tub aholisi tomondan atab qo'yilgan toponimlari ham mavjud. Joy nomining qanday atalishi sodir bo'lgan muhim voqea-hodisa yoki biror-bir mashhur shaxsning o'sha joyda yashab o'tganligi bilan ham belgilanadi. Bularning barchasini hisobga olgan holda u joy aniq bir nom bilan ataladi. Viloyat hududida joylashgan joy nomlarining atalishi ham xuddi shunday jarayonlar asosida yuzaga kelgan. Samarqand toponimining turli xil atalishi ham xuddi shu sabablarga ko'ra nomlangan. Buni biz "Samarqand" va boshqa bir qancha Samarqandning tarixi va buguniga doir manbalarda, asarlarda ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu toponimlar elektron katalog shaklida ham ma'lumotlar bazasi hosil qilish mumkin:

bir qator dunyoni zabt etgan shaxslarning aynan mana shu yurtda istiqomat qilib o'tganligi ham ushbu hududda joylashgan har bir toponim xorijiy olimlar uchun qiziq va haligacha ular mana shu yerning joy nomlarini o'rganish bilan shug'ullanishadi. Elektron korpus shaklidagi tuzilishi esa ularga ancha yengilliklar yaratadi. Aynan shuning uchun ham biz ilmiy ishimizni Samarqanddagi joy nomlarining elektron korpusda joylashishi mavzusida olishni joiz deb topdik.

Elektron korpus - bu raqamli shaklda hosil qilingan til manbalari majmuasi bo'lib, u so'zlarning, shu jumladan, toponimlarning qo'llanish chastotasi va ularning turli xil lingvistik, grammatik, etimologik jihatidan avtomatik tahlil qilish imkonini beruvchi kompyuterlashtirilgan maxsus tizim hisoblanadi. Toponimikada esa korpusli matnlar, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish orqali joy nomlarini maxsus qo'llanishga solish va ularni turli xil tomondan sinflarga bo'lib tasniflash imkonini beradi.

Samarqand toponimlarining elektron korpusdagi ko'rinishlari, ularning leksik-semantik, fonetik, morfologik, etimologik, sintaktik tomonlarini tez va oson aniqlash imkonini beradi. Shu sababli elektron korpusli matnlar fanning turli

sohalarida amalga oshirilishi ko'zlanmoqda. Bu hodisa [6] nafaqat o'zbek, balki jahon tilshunosligida ham tabiiy tilga ishlov berish, tilni kompyuterlashtirish, undagi turli xil jarayonlarni korpus turlari orqali tarjima dasturlarining mexanizmlarini kengaytirish hamda uni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tufayli vujudga keldi. Shu sababli ham korpus tilshunosligi sohasida turli xil izlanishlar olib borilmoqda va o'zbek tilida korpus lingvistikasi sohasida yangiliklar amalga oshirilmoqda. Nafaqat toponimlar, balki o'zbek tilidagi [7] matnlarni avtomatik tarzda tahrir qiluvchi tizimlarning lingvistik ta'minotlari ishlab chiqilgan. Ular til materiallarini kompyuterlashtirish bilan birga, mashina tarjima sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Fan-texnika shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida mashina tarjimasini hamda avtomatik tahrirlashni yo'lga qo'yish zarur. Mana shu jarayonlar bevosita tilshunoslar hamda dasturchilar hamkorligida amalga oshiriladi. Yangi tizimning yaratilishi fanda muhim jarayondir. Shu sababli ham dunyo tilshunosligida tilni avtomatlashtirish hamda matn tahriri bilan bog'liq yangiliklarni fan olamiga kiritish muhim vazifaga aylandi va bu borada jadal ilmiy izlanishlar olib borish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlarning asosiy sababi ham shundan iboratki, til muhim ijtimoiy jarayon ekanligi va u doimo o'zgarib borishini e'tiborga olib undagi leksik, etimologik, semantik, fonetik hodisalarning har biri chuqur o'rganilgan holda kompyuterlashtirilyapti va ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, fan-texnika sohasida hamda hayotning barcha jabhalaridagi matnlarni avtomatlashtirish orqali foydalanuvchilarga qulayliklar yaratilyapti. Avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali inglizcha, ruscha, fransuzcha, italyanacha matnlarni tahrir qilish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidagi matnlarni avtomatik tahrir qilish XXI asrga kelib rivojlandi. O'zbek tilidagi matnlarni ham mana shunday tahrir qilishni tuzish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda, kompyuter lingvistikasi degan yangi sohaning fanga kiritilishi va bu yangi dasturning o'quv darsliklari ishlab chiqilishi, oliy o'quv yurtlarida yangi fan sifatida o'tilishi ham muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, A.Po'latov boshchiligida magistrlik ishlari, doktorlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar nashri, darslik kitoblari ishlab

chiqilgan. Bundan asosiy maqsad dunyo kompyuter tilshunosligiga o'zbek tilini ham olib kirishdir. O'tgan yillarda esa M.X. Hakimov boshchiligida tarjimonlik sistemasi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlik ishlarida rus tilining leksik-semantik tahlili ishlab chiqilgan. Bu esa o'zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrirlashga zamin yaratdi.

Hozirgi kunga kelib dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasini [8] ilmiy jihatdan o'rganish va shu asosda shakllangan nazariyalarni tadqiq etish kundan kunga kuchaya bormoqda va natijada korpusga aloqador grammatik terminlarni o'rganishga bo'lgan talab orta boshladi. Kompyuter lingvistikasining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi natijasida jahon tillari kompyuter tili sifatida namoyon bo'la boshladi. Mana shu o'rinda o'zbek tili korpusining tashkil etilishi va tilimizning kompyuter tili darajasiga ko'tarilishi uchun yozilayotgan ilmiy ishlarning soni keng hajmda o'sib bormoqda. Sun'iy, ya'ni kompyuter tilining o'zbek tilini tushunishi katta mehnat va ilmiy tadqiqotlar talab etiladigan jarayon hisoblanadi.

Samarqand toponimlarining elektron korpusini tuzishda, birinchi navbatda, uning barcha hududlarining geografik tuzilishi, iqlimi, madaniyati va boshqa hamma jabhalaridan chuqur xabardor bo'lish talab etiladi. Shuning uchun ham leksikografiyani bilish muhimdir. Chunki toponimlar lug'atini o'rganish kerak va shundan keyin korpusga kiritish yo'llarini aniqlash lozim. Zero, bugungi zamonaviy lug'at [9:5-10] tuzish an'analari o'rganish ham dolzarb mavzulardan biriga aylanib qolmoqda. Bundan tashqari, [10] korpusda tanlab olingan Samarqand hududiga daxldor joy nomlari sinxron va diaxron jihatidan tahlil etiladi. Lingvistik korpus yordamida [11] ham shunday dasturlarni amalga oshirish tilshunoslar uchun katta yutuqdir. Shu kabi ilmiy tadqiqotlarning [12] aynan korpusda amalga oshirilishidan maqsad shuki, bu dastur qidiruv tizimi boshqalarga qaraganda ancha ijobiy tomonlama farq qilishidir. Bu jarayonga [13] toponimlarning dinamikasi, semantik o'zgarishlarini ham kiritish mumkin. Toponimlar korpusga kiritilganda saralangan va teglangan [14] bo'ladi. Teglanish [15] joylangan toponimlarni (umuman xohlagan matnlar) izohlanishidir. Mana shunday xususiyatlarni jamlagan holda o'zbek tiliga Samarqand viloyati toponimlarini kirgizsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Irisqulov O.J. O'zbekiston tarixi: Samarqand tarixi. O'quv qo'llanma.-Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2023, 332-b.
2. Abdurahmon Amonov. Kel, Samarqand shahriga. Samarqand "Turon" nashr, 2021, 350-b.
3. B.S. G'oyibov, J.M. Djuraqulov, M.X. Isamaddinov, Q.K. Rajabov, A.M. Malikov, K.Kattayev, O.T.Ergashev, M.X.Sidikova, O.J.Irisqulov, A.J.Bodirov, S.I.Muxiddinov. O'zbekiston tarixi (Samarqand tarixi) IX jild (O'zbekiston tarixi va manbalari) Toshkent, "O'zbekiston", 2023, 472-b.
4. Valiyeva Shahnoza Islomovna. Samarqand viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari ( Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand-2023, 43-b.
5. Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna. Samarqand shahri o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari (qarluq lahjasi misolida) Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023, 48-b.
6. Xaitqulov Zahriddin Xazratqul o'g'li. Tarjimoni avtomatlashtirishda parallel korpus kontekstual qidiruv tizimining funksional mohiyati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent- 2024,63-b.
7. Abjalova Manzura Abdurashetovna. O'zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik modullari (rasmiiy va ilmiy uslubdagi matnlar tahriri dasturi uchun). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg'ona-2019, 52-bet.
8. Sultanova Shahnoza Akmal qizi. Grammatik terminlar elektron lug'atini yaratishning lingvistik asoslari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Toshkent-2022, 59-bet.
9. Bashorat Baxriddinova. O'zbek o'quv lug'atchiligi asoslari. Monografiya. Qarshi. "Qarshi davlat universiteti" nashriyoti, 2024, 228-b.
10. Yuldasheva Nilufar Ergashevna. Ixtiyorbek Norov Kamoliddin o'g'li. Qashqadaryo viloyati toponimlari asosida lingvistik korpus yaratish tajribasi. Science Time Journal, 3-1-bet.
11. Qarshiyev Abduvali Berkinovich. O'zbek tili milliy korpusining dasturiy ta'minot strukturasi va vazifalari// "Kompyuter lingvistikasi:muammolar, yechim, istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amliy konferensiya 2022, 150.
12. Sobirova Nazira G'anjon qizi. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tasnifi.//Academic Research in Educational Sciences. Multidisciplinary Scientific Journal. 2022, 1450-bet.
13. Ibragimova Bahora Zohid qizi. O'zbek tlining korpus lingvistikasi asosida so'z chastotasi va ma'no o'zgarishi tahlili.//Science and culture:innovations of the 21st century-scientific conference. Global scholars scientific publishing, 2025, 135-bet.
14. Shakirov Rustam Sobirovich. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar to'g'risida.// Innovative Development in educational activities.Multidisciplinary Scientific Journal. 2023.175-bet.
15. Xidirov Otabek Jo'raboyevich. Korpus va korpus lingvistikasi.//Educational Research in Universal Sciences.Multidisciplinary Scientific Journal, 2023, 120-617-bet.